



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-iyul

178-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldag'i "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 71-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-noyabr kunidagi 685-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati to'g'risi"da gi 6, 25 moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Farg'ona tumani hududida joylashgan ilovada ko'rsatilgan yer maydoni zaxira yer fondida ekanligi, "Yerelektron" ATT dasturi orqali tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldag'i 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida elektron dastur orqali vakolatli tashkilotlarning kelishuvi hamda muhokamadan o'tkazilganligi inobatga olinsin.

2. Farg'ona tumani hududida joylashgan ilovada qayd etilgan bo'sh yer uchastka Farg'ona tumani hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilsin va mazkur yer uchastkalari tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda elektron auksionda realizatsiya qilish uchun qo'yilsin.

3. Tuman hokimining o'rinnbosari M.Qodirxonov, Kadastr agentligi tuman bo'limi (V.Esonov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (N.Otajonov) bilan birgalikda ushbu qarorga muvofiq, Farg'ona tumani hokimligining yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

4.Tuman hokimining o‘rnbosari M.Qodirxonov, Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sharopov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (V.Esonov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (N.Otajonov) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagи 71-sonli qarori 2- ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 24-bandiga muvofiq yer uchastkasi mulk huquqi bilan auksionga chiqarilganda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi baholash tashkiloti tomonidan tayyorlangan hisobot va ekspertiza xulosasi asosida «Yerelektron» ATTga yer uchastkasining boshlang‘ich narxini kiritishi, yer uchastkasi ijara huquqi bilan auksionga chiqarilganda «Yerelektron» ATT avtomatik ravishda tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan yer uchastkasiga ijara huquqining minimal qiymati asosida auksionga chiqarilayotgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqining boshlang‘ich qiymatini belgilanishini inobatga olsinlar.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rnbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 30-iyuldagı
178-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumani hududida joylashgan ilovada qayt etilgan bo‘sh yer
uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi assosida Farg‘ona tumani
hokimligi nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan yer maydoni**

Nº	Manzili	Yer uchastkasini “YERELEKTRON” tizimdagi raqami	Kadastr raqami	Maydoni (hektar)
1	Farg‘ona tumani Mehnatobod MFY	MG1730233018/1	15:13:41:02:04:0133	0.007